



JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

“MAXSUS TA’LIM MUAMMOLARI: INNOVATSIYA VA ISTIQBOLLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman

AXBOROT XATI



2025-yil 14-mart

Jizzax shahri

**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT XATI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandiga asosan xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarning o'z vaqtida samarali o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490 buyrug'iga asosan Jizzax davlat pedagogika universitetida 2025-yil 14-martda "Maxsus ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollari" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman o'tkaziladi.

Mazkur anjumanda pedagog va psixolog olimlar, ushbu sohada ilmiy izlanish olib borayotgan doktorantlar va tadqiqotchilar, magistrantlar, talabalar va boshqa mutaxassislar online va offline shaklda ishtirok etishlari mumkin.

**ANJUMAN QUYIDAGI YO'NALISHLARDA ISH OLIB
BORADI:**

1-Sho'ba. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar.

2-Sho'ba. Maxsus ta'limning zamonaviy muammolari.

3-Sho'ba. Maxsus ta'limda assistiv texnologiyalari

4-Sho'ba. Maktabgacha va maktab ta'limi sifatini oshirish muammolari va yechimlari.

Konferensiya rasmiy tillari: o'zbek, rus va ingliz tillari.

Materiallar (maqola, tezislari) 2025-yil 10- mart kuniga qadar qabul qilinadi.

To'lov badali: 50.000 so'm. To'lovlar quyidagi bank plastik kartalari orqali qabul qilinadi. *Uzkard 5614 6812 1527 4725 (Muzaffarova Xayitgul)*

To'lovni amalga oshirgandan keyin to'lov haqida chekni tashkiliy qo'mitaning tegishli sho'balari uchun mas'ullarining telegramiga jo'natishingiz so'raladi.

Tashkiliy qo'mita Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4-uy, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Murojaat uchun tel +99891 564-78-81

Konferensiya haqida batafsil ma'lumotlar, tezislarni yozish tartibi va tashkiliy masalalari quyidagi telefon raqamlari orqali bilib olishingiz mumkin: +99891 568-24-03 (*Shadieva Navbahor*), +99899 092-55-50 (*Abdujabborova Mavjuda*), +99893 300-25-17 (*To'raqulova Shaxnoza*), +99899 527-89-77 (*Aralova Iroda*).

Tashkiliy qo'mita maqola va tezislarni tahrir qilish huquqiga ega. Matnda keltirilgan faktlarning to'g'riligi va aniqligiga mualliflar javobgardir. Konferensiya anjuman spikerlariga diplom, ishtirokchilariga (ma'ruza qilmaganlar) esa sertifikat beriladi.

Anjuman materiallariga qo'yiladigan talablar: Maqola 3-5 betdan oshmasligi talab etiladi. Maqola matni.doc\docx formatida, chap tomondan 3 sm, o'ng tomondan 1,5 sm,

yuqori va past tomondan 2 sm, satrlar oralig'i 1,15 intervalda, Times New Roman 14 kegl shriftida tayyorlanadi.

Maqola nomi katta qora harflar bilan undan keyin maqolaning o'ng tomonidan muallifning familiyasi, ismi va sharifi, ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi, unvoni, telefon raqami, elektron pochtasi, mamlakati, viloyati va shaxri yoziladi.

Maqola annotatsiyasi va kalit so'zlari bilan boshlanadi.

Maqolaning elektron nusxasi quyidagi shaklda nomlanadi: sho'ba raqami, birinchi muallifning familiyasi, masalan *M.Abdullayev.doc*.

Havola va foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:

- Manba havolasi katta qavs ichida, sahifasi ko'rsatilgan tartibda beriladi, masalan:[1].

- Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati maqolada ishlatilgan tartibida maqola so'ngida beriladi. *Ilova №1* da maqolani yozish na'munasi berilgan.

Hurmat bilan, tashkiliy qo'mita!

Sho'balarga mas'ullar

№	Sho'balar	Mas'ul	Telefon raqami va telegramm
1.	O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar: inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar	<i>Abdujabborova Mavjuda</i>	+99899 092-55-50
2.	Maxsus ta'limning zamonaviy muammolari.	<i>Aralova Iroda</i>	+99899 527-89-77
3.	Maxsus ta'limda assistiv texnologiyalari	<i>Shadieva Navbahor</i>	+99891 568-24-03 <i>@defiktolog</i>
4.	Maktabgacha va maktab ta'limii sifatini oshirish muammolari va yechimlari	<i>To 'raqulova Shaxnoza</i>	+99893 300-25-17

NA'MUNA

MAXSUS PEDAGOGIKA VA UNING VAZIFALARI

Asrorova Zebo Turopovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika kafedrasida dotsenti,
f.f.d., (PhD)

tel. 99-008-05-04
@zebo2025

Kalit coʻzlar: Rinolaliya, toʻgʻri muloqot, hayot, nuqson, salbiy alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar, deklaratsiya, texnologiya, ijtimoiymoslashuv va h.k.

Annotatsiya: Maqolada kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning soʻz boyligini shakllantirish, ularning nutqini rivojlantirishning samarali yondashuvlarini aniqlash, toʻgʻri muloqot qilishga oʻrgatishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish masalalari ochib berilgan.

Jahon taʼlim va ilmiy tadqiqot muassasalarida rinolaliyali kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning soʻz boyligini shakllantirilgan holda ularning nutqini rivojlantirishning samarali yondashuvlarini aniqlash, toʻgʻri muloqot qilishga oʻrgatish metodlarining samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish, rinolalik oʻquvchilarni barcha fuqarolar singari teng imkoniyatlarga ega boʻlishini taʼminlash boʻyicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, hayot faoliyatidagi cheklanishlarini bartaraf etish, toʻlaqonli hayot kechirishlariga, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida faol qatnashishini taʼminlaydigan texnologiyalar ishlab chiqish hamda rinolaliyali kichik maktab yoshidagi oʻquvchilarning soʻz boyligini shakllantirishning ilmiy-amaliy jihatlarini takomillashtirishga oid tadqiqotlarga alohida ahamiyat berilmoqda.